KASBIY TAYYORLIGINI MODELLASHGA KOMPETENTLILIK NUQTAI NAZARIDAN YONDOSHUV

Abduvali Abdullaev
Jismoniy tarbiya va adaptiv sport nazariyasi kafedrasi professori, p.f.n.
Farg‘orna davlat universiteti

Annotatsiya: maqolada jismoniy madaniyat sohasi mutaxasisining modelini shakllantirishga kompetentli yondoshish bilan bo‘lajak mutaxasislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid material yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, kopetensiya, umumiy kompetensiyalar, pedagogik kasbiy kompetensiyalar, ixtisosligi kompetensiyalari.

Kirish. Kasbiy tayyorgarlikning har qanday tizimi kasbiy bilim berishni nazariy asoslarini yahlit konsepsiyasiga tayanadi, uning asosiy komponentlarini ishlashda esa unga yetakchi asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxasisning shakllantirish yo‘llarini kompetentligi nuqtai nazaridan izlash kasbiy ta’limning yangilanishida asosiy yo‘nalish bo‘lib, kasb egasi faoliyatining pozitsiyasida shakllan tirvchi, kasbiy faoliyatning tizimini bir butun mavjud boy tajribasiga tayanadi. Kasbiy ta’limda yangi, soha kadrining kompetentligi nuqtai nazaridan katta natijalar uchun mo‘ljal olish, yuqoriga intilish, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni olib kirishni taqazo etadi.

Maxsus adabiyot materiallarining taxlili orqali jismoniy madaniyat o‘qituvchilarini kompenentiga mo‘ljallangan tayyorgarliginig asosiy vazifalarini maqsadga muvofiq ravishda quyidagilardan iborat ekanligini aniqladik:

1.Bo‘lajak jismoniy madaniyat sohasi mutaxasislari kasbiy bilimlari tizimini yaratish.

2. Ixtisoslashtirilgan fakultet talabalarini zaruriy kompleksli kasbiy - pedagogik malaka va ko‘nikmalari sohibiga aylantirish.

3. Jismoniy madaniyat sohasiga oid ijobiy pedagogik faoliyat tajribalarini o‘zlashtirish.

4. Talabalarda jismoniy madaniyat nazariyasi bilimlari va pedagogik faoliyatga oid emotsional munosabatlarni shakllantirish.

Tadqiqotlarimiz orqali jismoniy madaniyat o‘qituvchilarini samarali pedagogik faoliyati poydevorini yaratish uchun bosh omil, mavjud, kasbiy faoliyat jihatidan tor steriotiplardan qutilish zaruriyat ekanligini aniqladik. Bu jismoniy madaniyat bo‘yicha mutaxasislar tayyorlash modelidan uni kasbiy jihatdan rivojlangan modelini tayyorlashga o‘tish bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Shuning uchun asosiy aksentni kasbiy malakalarini ongli ravishda tushunib shakllantirish va ularni o‘zining mo‘ljaldagi qimmatiga ko‘ra, samaradorligiga muvofiq konstruktiv tarzda hal qilish kerak bo‘ladi. Bu jismoniy madaniyat sohasi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlaridagi tayyorgarlik jarayoni tizimini to‘liq qayta qurishga imkon yaratadi va zaruriy bilimlarni natijasini egallashni bo‘lajak soha mutaxasislarini kompetentligiga oid aniq bilimlar ko‘rinishida beriladi.

Hozirgi kunda kasb egasini kompetentliligiga yondashuv o‘zini “kimligini tanish” bosqichidan, o‘zini “kimligi, nimaligini ko‘rsatish”, amaliyotda qo‘llash bosqichiga o‘tdi va bu kompetentlik tarkibidagi prinsiplar va metodologik ko‘rsatmalar , turli xildagi amaliy ishlanmalar orqali o‘zining tasdig‘ini topmoqda.

Gumanitar bilim beruvchi o‘quv muassasining jismoniy madaniyat fakulteti bitiruvchisi mehnat bozorida xaridorgir bo‘lishi uchun, ta’limning pedagogik jarayonini mutlaq qayta qo‘rishni va ularni o‘qitish jarayonining boshidan oxirigacha bo‘lgan davri davomida umumiy va kasbiy kompetentligini kompleks shakllantirish vazifasini hal qilinishi zaruriyatga aylangan.

Tashkilotchilik faoliyati: pedagoglik faoliyati tizimining mazmunida o‘quvchilarni turli xildagi jismoniy madaniyat - sport faoliyatiga yo‘naltirilgan ishlarga jalb qilish, jismoniy madaniyat jamoasini tashkillash, ommaviy sport sog‘lomlashtirish tadbirlar va boshqa qator tizimli faoliyatlarni mujassamlashtiradi.

Kommunikativlik faoliyati: pedagogni maqsadga muvofiq o‘quvchilar bilan pedagogik munosabatlari, boshqa uquv predmetlarning yetakchi mutaxasislari, maktabning jamoatchilik tashkilotlari vakillari, ota –onalar bilan ishlashi va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Jismoniy madaniyat sohasi pedagogining kompetenligining tarkibi va mazmuni hozirgi kunda pedagogik faoliyatining xususiy tomonlarini muvofiq ravishda, kompetentlikga yondoshuvini ishlamalarini ishlovchi larning xohish va istaklarini hisobga olish asosida amalga oshirilmoqda; jismoniy madaniyat ixtisosligini beruvchi gumanitar o‘quv maskanlarining bitiruvchilariga qo‘yilgan kvalifikatsion talablar esa davlat ta’lim standartlarida belgilab qo‘yilgan. Lekin DTS lari ham o‘zini takomillashtirilishiga muhtoj.

Mazmun bilim, ma’lumot olishda kompetentlikka kalit omildir.

Tizimlar tarkibidagi kompetentlikning mazmuni jismoniy madaniyat sohasiga oid bilimlar mazmuni shunday elementlarini o‘zida mujassamlashtiradiki, ular talabani shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarini yo‘naltirib shakllanishni ta’minlaydi. Shunga ko‘ra kompetensiya talabaga beriladigan to‘rtta konseptual ma’lumot mazmuniga: o‘quv faoliyatini xillariga aloqador moslanuvchan(tez muvofiqlasha oluvchan)lik, tole rantlik, uzluksizlik, maqsadga muvofiqlik xolatlariga tayanadi.

Moslashuvchan (tez muvofiqlasha olish)likning mazmuni talabalar jamoasini tuzilishi va uni shakllantirishga, individullashtirishga va samarali teskari aloqani yuzaga keltirishga, mazmunni belgilangan ma’lum vaqt va joyga bog‘lovchi modulli yondashuvni taminlaydi.

Tolerantlilik dasturi o‘zi va boshqalarga nisbatan hurmatni maqsadga muvofiq rivojlantirishni va tashqi muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni ifodalaydi.

Uzluksizlik dasturlarda vaqtga aloqador, yoshining katta kichikligi bilan bog‘liq to‘siqlar(barerlar) hamda chegaralarni yo‘qligi bilan ifodalanadi.

Mazmunni “maqsadga muvofiqligi” bilim va malakalarni integra siyasini ta’minlovchi muvofiqlik, shaxsiy mo‘ljal(“shohsuppaga ko‘tari lish”), ma’suliyat, mavjud muammoni muvozzanatlay olish, muvofiqlashtira bilishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarini kasbi nuqti nazaridan umumiy kompetentligiga aniq shartlar mavjud emas, bu ularga mehnat bozorida bo‘lajak mutaxasis sifatidagi bozorgir bo‘lish uchun o‘z imkoniyatlarini ishga solish, oldida turgan kasbini egallashda o‘z ichki imkoniyatlarini to‘liq ishga solish, bozorgir bo‘lishga imkon beradi. Esda saqlash lozimki, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining umumiy kompetensiyasi kasbi nuqtai nazaridan ahamiyatga molik va bu uning tor yo‘nalishdagi

kompetentligi uchun bazaviy asos bo‘lishi bilan o‘zini amaliy faoliyatda to‘la qonli namayon qilishga imkoniyat yaratadi.


Kasbiy kompetentlik – bu ishning talablari bilan muvofiq maqsadli faoliyat ko‘rsatish qobiliyati va unga tayyorlik, vazifalar va muammolarni mustaqil va metodik uyushgan holda yechish, hal qilish, o‘zining kasbiy faoliyati natijalarini baholashdir.

Jismoniy madaniyat o‘qituvchisining kompetentligi modelini shaklan tirishda, bazaviy kompetensiyalar guruhi mazmuniga oliy gumanitar ma’lumot beruvchi o‘quv muassasalarining “jismoniy madaniyat” yo‘nalishi bitiruvchilari uchun alohida talablar kiritiladi.

Jismoniy madaniyat o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi uning kasbiy faoliyatini samaradorligini ta’minlovchi shaxsiy sifatlari to‘plami sifatida ko‘zga tashlanadi. Uni shaxsiy sifatlari tarkibiga kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalari, qobiliyati, o‘z kasbini motivlashi va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq amaliyotda qo‘llay oladgan tajribasi, kasb egasi sifatida nazariy va amaliy potensiali haqidagi tavsiflarni kiritish maqsadga muvofiq.

Jismoniy madaniyat mutaxasisining kompetensiyasini 1 –chizmada berdik (1 – chizmaga qaralsin).

Aniqlashimizcha, 1-2 guruhga kiruvchi qompetensiyalar jismoniy madaniyat fakulteti bitiruchilariga ma’lumot olish talablari sferasida



Maxsus fanlar hamda jismoniy madaniyat – sport faoliyati texnologiyasi siklidagi fanlar va mutaxasislik fanlarida shakllantiriladi muvofiq mo‘ljal olish va keyinchalik qayta kasb o‘rganish(sohani o‘zgartirish), o‘zi ustida ishlash, o‘zini rivojlantirishga tayyor turishdek bilimlarni egallashda poydevor rolini o‘ynaydi. Uchinchi guruh kompetensiyalar fanlar bo‘yicha tayyorgarligiga oid vazifalarni hal qiladi, jismoniy madaniyat sohasi mutaxasislarini maxsus kompetentligi darajasini aniqlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joyizki, yuqorida bayon qilingan barcha kompetensiyalar jismoniy madaniyat mutaxasisini kasbiy faoliyatga tayyorligi modelini shakllantirishga kompetentli yondashuv asosida ishlab chiqildi. Jismoniy madaniyat sohasi mutaxasisini kasbiy faoliyatiga kompetentli yondoshuv nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan model, DTS tavsiya qilgan asosiy fanlarning kasb sohiblari kompetent ligining alohida guruhlarini va biz ajratgan guruhlar ichidagi ayrim ko‘rsatkichlarni alohida takomillashtirish talabini qo‘ymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shadrikov V.D. Novaya model spetsialista: innovatsionnaya podgatovaka i kompetentnostniy podxod // Vissheye orazovaniyesegodnya.2005, № 9. 14 s.
2. Lubisheva L.I. Magin V.A. Konsepsiya modernizatsii protsessa professionalnoy podgotovki spetsialistov po fiz. kulturi .// 2003, № 12. 22 s.
3. Kondurar M. “Ponyatiya kompetensiya i kompetentnost v obrazovanii” 2012. Moskva. 32s.